«TENGE BANK» ATBDA QARZ OLUVCHILARNING KREDITLARNI RESTRUKTURIZATSIYA QILISH TO'G'RISIDAGI ARIZALARINI KO'RIB CHIQISH TARTIB (yangi tahrir)

Toshkent – 2026

1-bob. Umumiy qoidalar

1. «Tenge Bank» ATBda qarz oluvchilarning kreditlarni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi arizalarini ko'rib chiqishning mazkur Tartibi (yangi tahrir) (bundan buyon – Tartib) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlariga, jumladan Tijorat banklarining bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda ularning faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi nizomga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 02.07.2018-yilda №3030 bilan ro'yxatga olingan), Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 14.07.2015-yilda №2696 bilan ro'yxatga olingan) va boshqa hujjatlarga, «Tenge Bank» ATBning (bundan buyon – Bank) Ustaviga hamda Bankning ichki qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Tartib quyidagilarni belgilaydi:

1) kreditlarni restrukturizatsiya qilish turlarini;

2) qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish asoslarini;

3) Qarz oluvchilarning arizalarini topshirish va ko'rib chiqish tartibini hamda zarur hujjatlar ro'yxatini;

4) Qarz oluvchilardan kelib tushgan arizalarni ko'rib chiqish va baholash shartlari hamda mezonlarini;

5) Qarz oluvchilarni qabul qilingan qaror haqida xabardor qilish tartibini;

6) ariza qanoatlantirilganda kredit shartnomasiga o'zgartirishlar kiritish tartibini.

3. Mazkur Tartib Bank oldida amaldagi kredit majburiyatlari mavjud bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarga tatbiq etiladi.

2-bob. Atamalar va ta'riflar

4. Mazkur Tartibda qo'llaniladigan asosiy atamalar va ta'riflar:

1) **Bank –** «Tenge Bank» ATB;

2) **Qarz oluvchi –** Bank bilan amaldagi kredit shartnomasiga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

3) **kredit –** Bank tomonidan taqdim etiladigan kreditlar, mikroqarzlar, mikrokreditlar, overdraft va kreditlashning boshqa shakllari;

4) **kredit shartnomasi –** Bank va qarz oluvchi o'rtasida tuzilgan, kreditni berish, undan foydalanish va uni qaytarish shartlarini, shuningdek, taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi shartnoma;

5) **Bankning rasmiy veb-sayti –** https://www.tengebank.uz/

6) **restrukturizatsiya –** moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan qarz oluvchilarning moliyaviy yukini kamaytirish va to'lov jadvaliga muvofiq majburiyatlarning kelgusida bajarilishini ta'minlash maqsadida amaldagi kredit shartnomasi shartlarini o'zgartirish;

7) **savdo nuqtalari –** Bankning Bank xizmatlari markazlari va Bank servis markazlari;

8) **fors-major holatlari –** qarz oluvchining majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qiluvchi favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va obyektiv holatlar.

3-bob. Restrukturizatsiya turlari

5. Jismoniy shaxs bo'lgan Qarz oluvchining moliyaviy holati va arizani ko'rib chiqish natijalariga qarab, Bank Qarz oluvchining kreditni so'ralgan shartlarda restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi arizasini qanoatlantirishga yoki qanoatlantirishni rad etishga yoxud kreditni restrukturizatsiya qilishning boshqa shartlarini taklif etishga haqli, jumladan:

1) asosiy qarz summasini va (yoki) foizlarni to’lashni 6 (olti) oygacha kechiktirish yoki to’lash muddatini uzaytirish, Qarz oluvchi homiladorlik va tug’ish ta’tilida bo’lgan taqdirda esa (ayollar uchun) – 10 (o’n) oydan oshmagan muddatga kechiktirish yoki uzaytirish;

2) O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va Bankning ichki qoidalariga zid bo’lmagan boshqa choralar.

6. Bank yuridik shaxs bo’lgan Qarz oluvchiga uning individual holati va moliyaviy tahlil natijalaridan kelib chiqib restrukturizatsiya turlarini, shu jumladan kredit shartnomasining, kredit liniyasining, Bosh kelishuvning va (yoki) alohida bank qarzining amal qilish muddatini uzaytirishni, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va Bankning ichki hujjatlariga zid bo’lmagan boshqa restrukturizatsiya shakllarini taklif etishga haqli.

7. Restrukturizatsiya doirasida kredit shartnomasi shartlarining o’zgartirilishi, shu jumladan to’lovlarni kechiktirish, majburiyatlarni bajarish muddatini uzaytirish, to’lov jadvalini va (yoki) kreditlashning boshqa shartlarini o’zgartirish, agar O’zbekiston Respublikasi qonunchiligida, Bank qarorida va kredit shartnomasiga qo’shimcha kelishuv shartlarida boshqacha qoida bevosita nazarda tutilmagan bo’lsa, o’z-o’zidan kreditdan foydalanganlik uchun foizlar hisoblanishining to’xtatilishiga olib kelmaydi. Foizlarni hisoblash va to’lash qo’shimcha kelishuv hamda yangi to’lov jadvalida nazarda tutilgan o’zgartirishlarni hisobga olgan holda kredit shartnomasi shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

4-bob. Restrukturizatsiya asoslari

8. Qarz oluvchining moliyaviy qiyinchiliklar, moliyaviy holatining yomonlashuvi, murakkab hayotiy vaziyatlar, fors-major holatlari, shuningdek, kredit shartnomasi bo’yicha majburiyatlarni o’z vaqtida bajarish imkoniyatiga ta’sir ko’rsatgan boshqa obyektiv sabablarga ko’ra tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan murojaati restrukturizatsiya masalasini ko’rib chiqish uchun asos bo’lishi mumkin.

9. Bank tomonidan restrukturizatsiya uchun asos sifatida ko’rib chiqilishi mumkin bo’lgan holatlarga quyidagilar kiradi:

1) Qarz oluvchining ikki oydan ortiq vaqt davomida vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo’lishi;

2) Qarz oluvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasining bekor qilinishi va uning tuman (shahar) kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko’maklashish bo’limlarida ish qidiruvchi shaxs sifatida ro’yxatga olinishi;

3) tabiiy va texnogen ofatlarning yuz berishi;

4) Birgalikda qarz oluvchi va (yoki) kafil bo’lgan Qarz oluvchining turmush o’rtog’i vafot etishi;

5) Qarz oluvchining qaramog’idagi shaxslar orasida I yoki II guruh nogironligi bo’lgan shaxslarning mavjudligi yoki uning qaramog’idagi I yoki II guruh nogironligi bo’lgan shaxslar sonining ko’payishi;

6) Qarz oluvchiga I yoki II guruh nogironligi belgilanishi;

7) Qarz oluvchining homiladorlik va tug’ish ta’tiliga chiqishi (ayollar uchun);

8) yuridik shaxs bo’lgan Qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashishi;

9) Bank tomonidan muhim deb topilgan, Qarz oluvchining moliyaviy holatiga yoki kredit shartnomasi bo’yicha majburiyatlarini o’z vaqtida va to’liq bajarish qobiliyatiga ta’sir ko’rsatadigan hamda ularni ko’rib chiqish O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va Bankning ichki qoidalariga zid bo’lmagan, hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa holatlar.

10. Qarz oluvchi mazkur Tartibning 9-bandi 1) va 2) kichik bandlarida ko’rsatilgan asoslar bo’yicha kredit shartnomasi bo’yicha majburiyatlarni bajarishni kechiktirish yoki bajarish muddatini uzaytirish to’g’risida ariza bilan murojaat qilgan taqdirda, Qarz oluvchining murojaat sanasidan oldingi ikki oy uchun o’rtacha oylik daromadi uning oxirgi o’n ikki oy

uchun o’rtacha oylik daromadiga nisbatan kamida 30 foizga kamaygan bo’lishi lozim.

Mazkur Tartibning 9-bandi 1)–7) kichik bandlarida ko’rsatilgan holatlar qarz oluvchi restrukturizatsiya masalasida Bankka murojaat qilgan sanadan oldingi to’rt oy davomida yuz bergan bo’lishi lozim.

Bunda, agar muayyan holatning sharoitlari restrukturizatsiya zarurligini ko’rsatsa va bunday qaror O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda Bankning ichki qoidalariga zid bo’lmasa, Bank ushbu bandda nazarda tutilgan shartlarga rioya etilmagan taqdirda ham kreditni restrukturizatsiya qilish to’g’risida qaror qabul qilishga haqli.

5-bob. Qarz oluvchilarning arizalarini topshirish va ko’rib chiqish tartibi hamda zarur hujjatlar ro’yxati

11. Qarz oluvchi kreditni restrukturizatsiya qilish to’g’risidagi ariza bilan Bankka quyidagi usullarda murojaat qilishga haqli:

– Bankka/Bankning savdo nuqtalariga shaxsan murojaat qilish orqali;

– Bankning elektron aloqa kanallari orqali;

– Bank tomonidan nazarda tutilgan boshqa usullarda.

12. Jismoniy shaxs bo’lgan Qarz oluvchining arizasi mazkur Tartibning №1-ilovasida ko’rsatilgan shaklda tuziladi va Qarz oluvchi yoki uning vakolatli shaxsi tomonidan imzolanadi/rasmiylashtiriladi.

Yuridik shaxs bo’lgan Qarz oluvchining arizasi mazkur Tartibning №2-ilovasida ko’rsatilgan shaklda tuziladi va yuridik shaxs nomidan ish yuritishga vakolatli shaxs tomonidan imzolanadi/rasmiylashtiriladi.

13. Arizaga muayyan holatdan kelib chiqib, restrukturizatsiya uchun murojaat qilishga asos bo’lgan holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi:

1) **Qarz oluvchining ikki oydan ortiq vaqt davomida vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo’lishi:**

- O’zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda berilgan, ketma-ket 2 oydan ortiq muddat uchun vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi;
- Qarz oluvchining oxirgi 12 oy uchun o’rtacha oylik daromadini tasdiqlovchi hujjat;

2) **Qarz oluvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasining bekor qilinishi va uning tuman (shahar) kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko’maklashish bo’limlarida ish qidiruvchi shaxs sifatida ro’yxatga olinishi:**

- Qarz oluvchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish to’g’risidagi buyruq nusxasi, elektron mehnat daftarchasidan ko’chirma (elektron ko’chirma mavjud bo’lmasa, mehnat daftarchasi nusxasi);
- O’zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda berilgan, kambag’allikni qisqartirish va bandlikka ko’maklashish bo’limida ish qidiruvchi shaxs sifatida ro’yxatga olinganlik to’g’risidagi ma’lumotnoma/ishsizlik nafaqasi tayinlanganligi to’g’risidagi ma’lumotnoma;
- Qarz oluvchining oxirgi 12 oy uchun o’rtacha oylik daromadini tasdiqlovchi hujjat;

3) **tabiiy va texnogen ofatlarning yuz berishi:**

- O’zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda berilgan, O’zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi yoki boshqa vakolatli davlat organining tabiiy ofat, yong’in to’g’risidagi ma’lumotnomasi, xati;

4) **Birgalikda qarz oluvchi va (yoki) kafil bo’lgan Qarz oluvchining turmush o’rtog’i vafot etishi:**

- O’zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda berilgan, Birgalikda qarz oluvchi va (yoki) kafil bo’lgan Qarz oluvchining turmush o’rtog’i vafot etganligi haqidagi guvohnoma;
- nikoh tuzilganligi haqidagi guvohnoma;

5) **Qarz oluvchining qaramog'idagi shaxslar orasida I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarning mavjudligi yoki uning qaramog'idagi I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar sonining ko'payishi:**

- belgilangan tartibda berilgan, qaramog'idagi shaxslarning nogironligi bo'lgan shaxs maqomini tasdiqlovchi hujjatlar (masalan, ijtimoiy himoya organlaridan ma'lumotnoma, qaramog'idagi shaxsning nogironlik guvohnomasi nusxasi, boshqa rasmiy tasdiqlovchi hujjatlar);
- qarindoshlikni tasdiqlovchi hujjat (zarur bo'lganda);

6) **Qarz oluvchiga I yoki II guruh nogironligi belgilanishi:**

- mehnatga layoqatsizlik varaqasi/tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining nogironlik belgilanganligi to'g'risidagi ma'lumotnomasi;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda berilgan, nogironligi bo'lgan shaxsning ijtimoiy kartasi yoki nogironlikni tasdiqlovchi boshqa hujjat;

7) **homiladorlik va tug'ish ta'tili:**

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda berilgan, homiladorlik va tug'ish bo'yicha mehnatga layoqatsizlik varaqasi;

8) **yuridik shaxs bo'lgan Qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashishi:**

- yuridik shaxsning ta'sis hujjatlari nusxalari (ustav, unga kiritilgan o'zgartirishlar – mavjud bo'lsa);
- arizani imzolagan shaxsning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar (tayinlash to'g'risidagi buyruq, vakolatli organning bayonnomasi/qarori, ishonchnoma – zarur bo'lganda);
- oxirgi hisobot davri va oxirgi yakunlangan kalendar yil uchun buxgalteriya (moliyaviy) hisoboti;
- yuridik shaxsning moliyaviy holati yomonlashganligini va (yoki) to'lov jadvali buzilganligini tasdiqlovchi hujjatlar (jumladan, biroq bu bilan cheklanmagan holda: tushumning kamayishi, asosiy shartnomalarning bekor qilinishi, faoliyatning to'xtatilishi, majburiyatlarning ko'payishi, sud nizolari, boshqa holatlar);
- joriy moliyaviy holat va pul mablag'lari harakati to'g'risidagi ma'lumotnoma (mavjud bo'lsa);
- bankrotlik, tugatish, qayta tashkil etish tartib-taomillarining mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- kreditor so'roviga ko'ra arizani ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar.

9) **Bank tomonidan muhim deb topilgan, hujjatlar bilan tasdiqlangan boshqa holatlar:**

- restrukturizatsiya uchun murojaat qilishga asos bo'lgan holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar.

Barcha hollarda arizaga Qarz oluvchining yoki uning vakilining shaxsini tasdiqlovchi hujjat nusxasi, ariza Qarz oluvchining vakili tomonidan topshirilgan taqdirda esa uning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Zarur bo'lganda Bank kreditni restrukturizatsiya qilish uchun murojaat qilishga asos bo'lgan holatlarni tasdiqlash, shuningdek, arizani ko'rib chiqish va qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar va ma'lumotlarni so'rashga haqli.

14. Kelib tushgan barcha arizalar kelib tushgan kuni Bank tomonidan majburiy ravishda ro'yxatga olinishi lozim, ariza ishlanmaydigan, dam olish yoki bayram kunida kelib tushgan taqdirda esa ariza kelib tushgan kundan keyingi birinchi bank ish kunidan kechiktirmay ro'yxatga olinadi.

15. Kredit shartnomasida Birgalikda qarz oluvchi mavjud bo'lsa, Bank restrukturizatsiya to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish va u bo'yicha qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan hollarda mazkur Tartib qoidalarini Birgalikda qarz oluvchiga ham qo'llashga, shu jumladan Qarz oluvchi uchun nazarda tutilgan hujjatlar va ma'lumotlarni undan so'rashga

haqli.

6-bob. Qarz oluvchilarning arizalarini ko’rib chiqish va baholash shartlari hamda mezonlari

16. Qarz oluvchining restrukturizatsiya to’g’risidagi arizasi ro’yxatga olingan kundan boshlab 15 (o’n besh) kalendar kun ichida ko’rib chiqiladi.

17. Tekshiruv o’tkazish, qo’shimcha materiallarni talab qilib olish yoki boshqa choralarni ko’rish zarur bo’lgan taqdirda, Qarz oluvchining restrukturizatsiya to’g’risidagi arizasini ko’rib chiqish muddati ko’pi bilan 1 (bir) oyga uzaytirilishi mumkin, bunda Qarz oluvchi bunday uzaytirish sabablari haqida xabardor qilinadi.

18. Qarz oluvchining restrukturizatsiya to’g’risidagi murojaati Bank tomonidan Qarz oluvchi taqdim etgan ma’lumotlar va hujjatlar, tashqi manbalar va axborot tizimlaridan olingan ma’lumotlar, shuningdek, Bank ixtiyoridagi ma’lumotlar asosida, Qarz oluvchining moliyaviy holatini, restrukturizatsiya uchun murojaat qilishga asos bo’lgan holatlarning xususiyatini, kredit tarixini, to’lov intizomini, kredit shartnomasi bo’yicha majburiyatlarning bajarilish sifatini, joriy qarzdorlikning mavjudligini, to’lov qobiliyatini tiklash istiqbollarini va qaror qabul qilish uchun ahamiyatga ega bo’lgan boshqa holatlarni hisobga olgan holda individual tartibda ko’rib chiqiladi.

19. Qarz oluvchilarning restrukturizatsiya to’g’risidagi arizalarini ko’rib chiqish va ular bo’yicha qarorlar qabul qilish Bank tomonidan mazkur Tartib, Bankning ichki hujjatlari va O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

20. Arizani ko’rib chiqish natijalariga ko’ra Bank quyidagilarga haqli:

1) kreditni Qarz oluvchi so’ragan shartlarda restrukturizatsiya qilish to’g’risida qaror qabul qilish;

2) Qarz oluvchiga kreditni restrukturizatsiya qilishning boshqa (muqobil) shartlarini taklif etish;

3) kreditni restrukturizatsiya qilishni rad etish;

4) qo’shimcha hujjatlar va (yoki) ma’lumotlarni taqdim etish zarurligini ko’rsatgan holda arizani qayta ishlash uchun qaytarish.

21. Bank quyidagi hollarda restrukturizatsiyani rad etishga haqli:

- haqqoniy bo’lmagan ma’lumotlar taqdim etilganda;
- arizani ko’rib chiqish uchun zarur bo’lgan hujjatlar va ma’lumotlar taqdim etilmaganda;
- tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo’lmaganda;
- mazkur kredit shartnomasi bo’yicha ilgari restrukturizatsiya amalga oshirilgan bo’lsa;
- restrukturizatsiya uchun obyektiv asoslar mavjud bo’lmaganda;
- to’lov qobiliyatini tiklash istiqbollari mavjud bo’lmaganda;
- qonunchilik talablariga yoki Bankning ichki qoidalariga muvofiq bo’lmaganda.

7-bob. Qarz oluvchini xabardor qilish tartibi

22. Restrukturizatsiya to’g’risidagi arizani ko’rib chiqish masalalari yuzasidan Bank va Qarz oluvchi o’rtasidagi o’zaro aloqa elektron pochta, SMS-xabarlar, push-bildirishnomalar, yozma xabarnomalar, shuningdek, kredit shartnomasida, Qarz oluvchining arizasida yoki Bankning ichki qoidalarida nazarda tutilgan boshqa aloqa kanallari orqali amalga oshirilishi mumkin.

23. Bank kreditni restrukturizatsiya qilish to’g’risidagi arizani ko’rib chiqish natijalariga ko’ra qabul qilingan qaror haqida Qarz oluvchini tegishli qaror qabul qilingan kundan boshlab 3 bank kunidan kechiktirmay xabardor qiladi

24. Bankning kreditni restrukturizatsiya qilish to’g’risidagi qarori haqidagi xabarnomada quyidagilar ko’rsatilishi mumkin:

- Bank taklif etayotgan restrukturizatsiya shartlari;
- kredit shartnomasiga qo’shimcha kelishuv tuzish zarurligi;

– yangi to’lov jadvali (u o’zgartirilgan bo’lsa);

– restrukturizatsiyani rasmiylashtirish uchun zarur bo’lgan harakatlarni bajarish muddatlari;

– restrukturizatsiya to’g’risidagi qarorni amalga oshirish bilan bog’liq boshqa ma’lumotlar.

25. Qarz oluvchining kreditni restrukturizatsiya qilish to’g’risidagi arizasini qanoatlantirish rad etilganligi haqidagi xabarnomada rad etish sabablari ko’rsatiladi. Xabarnomada Qarz oluvchi restrukturizatsiya uchun takroran murojaat qilganda hisobga olinishi mumkin bo’lgan holatlar, hujjatlar va (yoki) ma’lumotlar to’g’risidagi axborot ham keltirilishi mumkin.

8-bob. Kredit shartnomasiga o’zgartirishlar kiritish tartibi

26. Bank kreditni restrukturizatsiya qilish to’g’risida ijobiy qaror qabul qilgan va Bank bilan Qarz oluvchi o’rtasida kelishuvga erishilgan taqdirda, kredit bo’yicha majburiyatlarni bajarishning yangi shartlarini belgilovchi kredit shartnomasiga qo’shimcha kelishuv rasmiylashtiriladi.

27. Kreditni restrukturizatsiya qilish bilan bog’liq xarajatlar, jumladan, biroq bu bilan cheklanmagan holda, sug’urta polislarini uzaytirish, qo’shimcha sug’urta mukofotlari, komissiyalar, ro’yxatdan o’tkazish va boshqa to’lovlarni to’lash xarajatlari, agar Bank qarorida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo’lsa, Qarz oluvchi zimmasiga yuklanadi. Ularni to’lash tartibi, muddatlari va shartlari Bank tomonidan O’zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki qoidalariga muvofiq belgilanadi.

28. Kreditni restrukturizatsiya qilish to’g’risidagi ma’lumotlar Bank tomonidan O’zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda va tartibda kredit byurolarida, davlat axborot tizimlarida, reyestrlarda va boshqa tashkilotlarda aks ettiriladi va (yoki) ularga uzatiladi.

29. Bank tomonidan qabul qilingan restrukturizatsiya to’g’risidagi qaror Qarz oluvchiga yuborilgan xabarnomada ko’rsatilgan muddat davomida amal qiladi. Ko’rsatilgan muddat tugagach, takroriy murojaat yangi ariza sifatida ko’rib chiqiladi.

9-bob. Kreditni restrukturizatsiya qilishning umumiy shartlari

30. Qarz oluvchi kreditni restrukturizatsiya qilish to’g’risidagi ariza bilan Bankka takroran murojaat qilishga haqli. Takroriy murojaat Bank tomonidan mazkur Tartibda nazarda tutilgan tartibda, uni ko’rib chiqish sanasida mavjud bo’lgan holatlarni hisobga olgan holda ko’rib chiqiladi.

31. Qarz oluvchi quyidagilarni bajarishi shart:

– restrukturizatsiya to’g’risidagi arizani ko’rib chiqish uchun zarur bo’lgan to’liq, haqqoniy va dolzarb ma’lumotlarni Bankka taqdim etish;

– arizada ko’rsatilgan holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar va ma’lumotlarni taqdim etish;

– aloqa ma’lumotlari, moliyaviy holati va kredit shartnomasi bo’yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan boshqa holatlar o’zgarganligi haqida Bankni o’z vaqtida xabardor qilish;

– kredit shartnomasida va unga qo’shimcha kelishuvlarda nazarda tutilgan majburiyatlarni vijdonan bajarish;

– Bank so’roviga ko’ra restrukturizatsiya imkoniyatini baholash uchun zarur bo’lgan qo’shimcha hujjatlar va ma’lumotlarni taqdim etish;

– soxta, haqqoniy bo’lmagan, to’liq bo’lmagan yoki chalg’ituvchi ma’lumotlar va hujjatlar taqdim etilishiga yo’l qo’ymaslik.

32. Qarz oluvchi taqdim etilgan ma’lumotlar va hujjatlarning to’liqligi, haqqoniyligi

va dolzarbligi uchun javobgar bo'ladi.

33. Haqqoniy bo'lmagan, to'liq bo'lmagan yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar, shuningdek, huquqni suiiste'mol qilish yoki insofsiz xatti-harakat alomatlari aniqlangan taqdirda, Bank quyidagilarga haqli:

– restrukturizatsiya to'g'risidagi arizani qanoatlantirishni rad etish;

– qo'shimcha kelishuv imzolangunga qadar ilgari qabul qilingan restrukturizatsiya to'g'risidagi qarorni bekor qilish;

– ilgari kelishilgan restrukturizatsiya shartlarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va kredit shartnomasi shartlarida nazarda tutilgan tartibda qayta ko'rib chiqish;

– O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va Bankning ichki qoidalarida nazarda tutilgan boshqa choralarni qo'llash.

34. Qarz oluvchining restrukturizatsiya to'g'risida ariza taqdim etishi uni tegishli qo'shimcha kelishuv kuchga kirgunga qadar kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

35. Qarz oluvchi quyidagilarni tushunadi va ularga rozilik bildiradi:

– restrukturizatsiya Bankning majburiyati emas, balki huquqi hisoblanadi;

– ariza Bank tomonidan qarz oluvchining moliyaviy holati, kredit tarixi va boshqa omillarni kompleks baholash asosida ko'rib chiqiladi;

– ariza topshirilganligining o'zi ijobiy qaror qabul qilinishini kafolatlamaydi;

– restrukturizatsiya to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda va tartibda kredit byurolari hamda boshqa vakolatli tashkilotlarga uzatilishi mumkin.

36. Bank va Qarz oluvchi restrukturizatsiya masalalarini ko'rib chiqishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq halollik, oqilonalik, shaffoflik, huquqni suiiste'mol qilishga yo'l qo'ymaslik va taraflar manfaatlari muvozanatini saqlash tamoyillariga amal qiladilar.

10-bob. Yakuniy qoidalar

37. Bank o'zining rasmiy veb-saytida mazkur Tartib orqali Qarz oluvchilarni qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilish huquqi, qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi ariza bilan birga tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish zarurligi va qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish to'g'risidagi ariza mazmuniga qo'yiladigan talablar haqida xabardor qiladi.

38. Mazkur Tartibga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, uni o'z kuchini yo'qotgan deb topish Bankning ichki qoidalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

39. Agar mazkur hujjatning ayrim normalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va/yoki Bank Ustaviga zid bo'lsa, ushbu normalar o'z kuchini yo'qotadi hamda mazkur Qoidalarga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar ushbu normalar bilan tartibga solinadigan masalalarda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki Bank Ustavi normalariga amal qilinishi lozim.

40. Mazkur Tartibda tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Bankning ichki qoidalari bilan tartibga solinadi.

41. Mazkur Tartib Bankning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan sanadan boshlab kuchga kiradi.

«Tenge Bank» ATBda qarz oluvchilarning kreditlarni
restrukturizatsiya qilish to’g’risidagi arizalarini ko’rib chiqish
Tartibiga (yangi tahrir) №1-ilova

Jismoniy shaxslar uchun kredit shartnomasini restrukturizatsiya qilish to’g’risidagi ariza shakli

«Tenge Bank» ATBga
Kimdan (Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining F.I.O.): _____

JShShIR: _____
Pasport/ID-kartaning seriyasi va raqami: _____

Yashash manzili: _____

Aloqa telefon raqami: _____
Elektron pochta (mavjud bo’lsa): _____

ARIZA
kredit shartnomasini restrukturizatsiya qilish to’g’risida

Kredit shartnomasi bo’yicha majburiyatlarni restrukturizatsiya qilish imkoniyatini ko’rib chiqishingizni so’rayman:

Kredit shartnomasi (shartnomalari) to’g’risidagi ma’lumotlar: raqami, tuzilgan sanasi va kredit turi: *(masalan: 01.01.2026-yildagi № M3123-123 – Mikroqarz, ...)* _____

Murojaat sababining bayoni:

_____

Yuzaga kelgan moliyaviy qiyinchiliklar/murakkab hayotiy vaziyat/fors-major holatlari munosabati bilan yuqorida ko’rsatilgan kredit shartnomalari bo’yicha quyidagi restrukturizatsiya choralarini qo’llash imkoniyatini ko’rib chiqishingizni so’rayman:

□ asosiy qarz va hisoblangan foizlar bo'yicha to'lovlarni _____ oygacha bo'lgan muddatga kechiktirish;

□ boshqa:_____

_____

_____

Arizaga quyidagi hujjatlarni ilova qilaman:

_____

_____

_____

_____

_____

Ushbu bilan quyidagilarni tasdiqlayman:

- taqdim etilgan ma'lumotlar to'liq va haqqoniy;
- «Tenge Bank» ATBga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq shaxsga doir ma'lumotlarimni, moliyaviy axborotni, kredit tariximga oid ma'lumotlarni va mazkur arizani ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni qayta ishlash, saqlash, ulardan foydalanish va ularni uzatishga rozilik beraman;
- Bankka men haqimdagi ma'lumotlarni kredit byurolari, davlat axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari, davlat organlari, ish beruvchilar, to'lov tashkilotlari, sug'urta tashkilotlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa manbalardan olish, tekshirish va almashishga rozilik beraman;
- Bankning mening to'lov qobiliyatimni va moliyaviy holatimni baholash hamda mazkur ariza bo'yicha qaror qabul qilish uchun tashqi manbalardan olingan ma'lumotlar va hujjatlardan foydalanishiga rozilik beraman;
- haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlarni taqdim etish restrukturizatsiyani rad etish uchun asos bo'lishi mumkinligi menga ma'lum;
- mazkur arizaning topshirilishi meni qo'shimcha kelishuv imzolangunga qadar kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

Sana: 20_____ yil «_____» _____

Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining imzosi: _____

«Tenge Bank» ATBda qarz oluvchilarning kreditlarni
restrukturizatsiya qilish to’g’risidagi arizalarini ko’rib chiqish
Tartibiga (yangi tahrir) №2-ilova

Yuridik shaxslar uchun kredit shartnomasini restrukturizatsiya qilish to’g’risidagi ariza shakli

«Tenge Bank» ATBga
Kimdan (Yuridik shaxsning nomi): _____
_____
STIR: _____
Yuridik manzili: _____
Hisobvaraq: _____
Bank: _____
_____
Aloqa telefon raqami: _____
Elektron pochta (mavjud bo’lsa): _____
Vakolatli shaxsning F.I.O.: _____
Lavozimi: _____

ARIZA

kredit shartnomasini restrukturizatsiya qilish to’g’risida
Kredit shartnomasi bo’yicha majburiyatlarni restrukturizatsiya qilish imkoniyatini ko’rib chiqishingizni so’rayman:

Kredit shartnomasi (shartnomalari) to’g’risidagi ma’lumotlar: raqami, tuzilgan sanasi va kredit turi: *(masalan: 01.01.2026-yildagi № K123-123 – Aylanma mablag’larni to’ldirish uchun kredit, ...)* _____
_____
_____
_____
_____
_____
_____

Murojaat sababining bayoni:

_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____
_____

Yuzaga kelgan moliyaviy qiyinchiliklar/murakkab hayotiy vaziyat/fors-major holatlari munosabati bilan yuqorida ko’rsatilgan kredit shartnomalari bo’yicha quyidagi

restrukturizatsiya choralarini qo’llash imkoniyatini ko’rib chiqishingizni so’rayman:

□ asosiy qarz va hisoblangan foizlar bo’yicha to’lovlarni _____ oygacha bo’lgan muddatga kechiktirish;

□ boshqa: _____
_____
_____
_____

Arizaga quyidagi hujjatlarni ilova qilaman:

_____
_____
_____
_____
_____

Ushbu bilan quyidagilarni tasdiqlayman:

- ma’lumotlar va hujjatlar to’liq va haqqoniy;
- yuridik shaxs va uning vakolatli vakillari «Tenge Bank» ATBga O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq shaxsga doir ma’lumotlarni, moliyaviy axborotni, kredit tarixiga oid ma’lumotlarni va mazkur arizani ko’rib chiqish uchun zarur bo’lgan boshqa ma’lumotlarni qayta ishlash, saqlash, ulardan foydalanish va ularni uzatishga rozilik bildiradilar;
- Bankka ma’lumotlarni kredit byurolari, davlat axborot tizimlari, ma’lumotlar bazalari, davlat organlari, banklar, to’lov tashkilotlari, sug’urta tashkilotlari, kontragentlar va O’zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa manbalardan olish, tekshirish va almashishga rozilik beramiz;
- Bankning moliyaviy holatni baholash va mazkur ariza bo’yicha qaror qabul qilish uchun tashqi manbalardan olingan ma’lumotlar va hujjatlardan foydalanishiga rozilik beramiz;
- yuridik shaxs taqdim etilgan ma’lumotlarning haqqoniyligi uchun javobgar bo’ladi;
- Bank qo’shimcha hujjatlar va ma’lumotlarni so’rashga haqli.

Sana: 20_____ yil «_____» _____

Vakolatli shaxsning F.I.O.: _____

Vakolatli shaxsning imzosi: _____

M.O’. (mavjud bo’lsa)